

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI BIOFIZIKA VA BIOKIMYO  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.B.01.13 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BIOFIZIKA VA BIOKIMYO INSTITUTI**

**RAXIMOVA MANZURA BOZOR QIZI**

**HAJMGA BOG‘LIQ HUYAYRAVIY JARAYONLARGA GLITSIRRET  
KISLOTASI HOSILALARI VA SUPRAMOLEKULAR  
KOMPLEKSLARINING TA‘SIRI**

**03.00.02 – Biofizika va radiobiologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Raximova Manzura Bozor qizi**

Hajmga bog‘liq hujayraviy jarayonlarga glitsirret kislotasi hosilalari va supramolekulyar komplekslarining ta’siri.....3

**Рахимова Манзура Бозор қизи**

Влияние производных глицирретовой кислоты и ее супрамолекулярных комплексов на объем-зависимые клеточные процессы .....21

**Rakhimova Manzura Bozor qizi**

The effect of glycyrrhetic acid derivatives and supramolecular complexes on volume-dependent cellular processes .....41

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI BIOFIZIKA VA BIOKIMYO  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.B.01.13 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BIOFIZIKA VA BIOKIMYO INSTITUTI**

**RAXIMOVA MANZURA BOZOR QIZI**

**HAJMGA BOG‘LIQ HUYAYRAVIY JARAYONLARGA GLITSIRRET  
KISLOTASI HOSILALARI VA SUPRAMOLEKULAR  
KOMPLEKSLARINING TA‘SIRI**

**03.00.02 – Biofizika va radiobiologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/B966. raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Milliy Universiteti huzuridagi Biofizika va biokimyo institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (резюме)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.ibb-nuu.uz](http://www.ibb-nuu.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Merzlyak Petr Grigorevich**  
biologiya fanlari doktori

**Rasmiy opponentlar:**

**Ergashev Nurali A'zamovich**  
biologiya fanlari doktori

**Muxtorov Alisher Abdugafor o'g'li**  
biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Immunologiya va inson genomikasi instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti Biofizika va biokimyo instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.B.01.13 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil:100174,Toshkent shahri, Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, Universitet ko'chasi,174-uy.Tel: (99871) 246-68-96).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universiteti Biofizika va biokimyo instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№\_\_\_raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, Universitet ko'chasi, 174-uy. Tel: (99871) 246-68-96, e-mail: [ibb-nuu@mail.ru](mailto:ibb-nuu@mail.ru); [mamurjon2281@mail.ru](mailto:mamurjon2281@mail.ru)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi №\_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).



**Sabirov Ravshan Zairovich**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
b.f.d., akademik

**Pozilov Ma'murjon Komiljonovich**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, b.f.d., professor

**Axmedjanov Iskandar Gulyamovich**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Tirik organizmlarda hujayra hajm boshqarilish tizimi ko‘plab fiziologik va patofiziologik jarayonlarda eng muhim rol o‘ynaydi. Proliferatsiya, apoptoz va migratsiya kabi normal fiziologik jarayonlardan tashqari, ishemiya va gipoksiya davrida kardiomiotsitlar va glial hujayralar hajmining oshishi, septik shokda to‘qimalarning shishishi, giponatremiya, laktoatsidoz va diabetik ketoatsidoz kabi patofiziologik jarayonlarda hajm boshqarilishi muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari hujayra hajmini boshqarish markaziy asab tizimi uchun muhim ahamiyatga ega, chunki bosh suyagi hajmi cheklangan va insultni hozirgi klinik davolash gipertonik eritmalarni yuborish orqali intrakranial bosimni hamda hajmni kamaytirishga qaratilgan. Hujayra hajm boshqarilish tizimi turli ion kanallari, tashuvchilar va ion nasoslarini o‘z ichiga olgan murakkab jarayondir. Hujayra membranalarida ion transport tizimlarini bloklash yoki faollashtirish orqali hujayra hajmini boshqarishga erishish mumkin va bu tibbiyot va farmakologiyada eng dolzarb muammolardan biridir. Toksikligi past va yuqori selektivlikka ega bo‘lgan ion kanal blokatorlarining kashf etilishi yangi neyroprotektiv, kardioprotektiv va immunomodulyator dorilarni yaratish uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida o‘simliklardan biologik faol moddalarni ajratish va turli kasalliklarga qarshi dori preparatlari yaratish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Glitsirrin kislota (GK) qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra*) o‘simligi ildizi ekstraktlarining asosiy komponenti bo‘lib, yallig‘lanishga qarshi va virusga qarshi, shu jumladan SARS-CoV-2ga qarshi dorilarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Og‘iz orqali yuborilganda, GK ichak mikroflorasining glyukuronidazasi ta‘sirida parchalanib, aglikon GK – glitsirret kislota (GK) hosil qiladi va u laboratoriya hayvonlari va odamlar plazmasida aynan shu shaklda bo‘ladi. GK viruslarga qarshi, yallig‘lanishga qarshi, yaralarga qarshi, o‘smaga qarshi, gipoglikemik, gipolipidemik kabi turli xil biologik faolliklarga ega. Bundan tashqari, GK gipokaliyemiya, shish va gipertenziyaga olib keladigan aldosteronni kamaytiradi, qalqonsimon bez funksiyasini ingibirlab bazal metabolizm tezligini pasaytiradi. GK ning strukturasi kelib chiqqan kuchli lipofillik va past suvda eruvchanlik xususiyatlari uni qo‘llashda qiyinchilik tug‘diradi. GK ning tez eruvchan va kuchli faollikka ega yangi hosilalarini olish muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyotda GK ning ba‘zi ion kanallariga ta‘siri haqida ma‘lumotlar mavjud bo‘lsada, GK ning o‘zi, uning hosilalari va supramolekulyar komplekslarining hujayra hajm boshqarilish tizimiga ta‘sirini o‘rganuvchi tajribalar deyarli o‘tkazilmagan.

Mamlakatimizda bugungi kunda ion kanallarining yangi samarali va kam toksik modulyatorlarini kashf qilish va ularning ta‘sir mexanizmlarini tadqiq etish bo‘yicha fundamental va amaliy izlanishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “...ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini

amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish”<sup>1</sup> ta’kidlangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda mahalliy o‘simliklardan ajratilgan biologik faol birikmalarning hujayra hajmi boshqarilishi tizimiga ta’sir mexanizmlarini aniqlash, ular asosida immunomodulyator va saratonga qarshi yangi farmakologik preparatlar yaratish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 14-fevraldagi PQ-3532-son “Farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori va 2019-yil 6-maydagi PQ-4310-son “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI “Tibbiyot va farmakologiya” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Hujayra hajmining o‘zgarishi muhim fiziologik jarayonlarni tartibga solish uchun adaptiv signaldir (Hoffmann va boshq., 2009; Lang va boshq., 1998). Ko‘pgina hujayralar fiziologik signallarga javoban o‘zlarining funktsionalligini tiklash uchun samarali hajm boshqarilish tizimiga ega va osmosensor yoki osmosignalizatsiyadagi o‘zgarishlar turli patofiziologik sharoitlar bilan bog‘liq (Lang va boshq., 1998; Okada 2024). Ion kanallari hujayra hajm boshqarilish tizimining muhim tarkibiy qismidir (Delpire & Gagnon 2018; Okada et al. 2021). GK va GIK ning ion kanallariga ta’siri haqida ma’lumotlar cheklangan. Jumladan, glitsirret kislotasining gemisuksinil hosilasi – karbenoksolon astrotsit hujayralarida anion kanallarini bloklashi haqida ma’lumotlar keltirilgan (Benfenati et al., 2009). Shuningdek, karbenoksolon potensialga bog‘liq kaltsiy oqimlarini (Vessey et al., 2004), *Xenopus* ootsitlarida monomerik Panx1 kanallari va geteromerik Panx1/Panx2 kanallarini bloklaydi (Bruzzone et al., 2005). GIK ning o‘zi Jurkat T hujayralarida Kv1.3 kaliy kanallarini ingibirlaydi (Fu et al., 2013), Cx50 va Cx46 tirqish kontakt kanallarini ingibirlaydi (Bruzzone et al., 2005; Bodendiek et al., 2010).

MDH davlatlarida N.J. Ormanov va boshqalar (2013) GIK ning yallig‘lanishga qarshi ta’siri uning kortizolga o‘xshash ta’siri bilan bog‘liq bo‘lib, bu fosfolipaza A2 ni ingibirlashi orqali namoyon bo‘lishini aniqladilar. Shuningdek, A.V. Koshkina (2018) tomonidan glitsirret kislotasining gepatoprotektor, neyroprotektor, viruslarga qarshi, bakteriyalarga qarshi faolliklari tahlil qilingan. Ko‘pgina tadqiqotlarga qaramay, glitsirret kislota va uning

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli –Farmoni

hosilalarining hujayra hajm boshqarilishiga ta'siri haqidagi savollar javobsiz qolmoqda.

Respublikamizda ion kanallarining biofizikaviy va farmakologik tadqiqotlari akademiklar B.A. Toshmuxamedov va R.Z. Sabirov, professorlar U.Z. Mirxodjayev, P.B. Usmanov, M.I. Asrarov rahbarligida olib borilgan. Ushbu ilmiy maktab olimlari o'simlik va hayvonlardan ajratilgan turli xil biologik faol moddalarning hajmga bog'liq anion kanallari bo'yicha ta'sir qilish mexanizmini, yurak va silliq muskul hujayralarida kaltsiy tashish mexanizmini, mitoxondriyadagi megaporlar va kaliy kanallarining funksiyasini, normal va saraton hujayralarida hajm boshqarilish tizimini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar olib boradilar.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Biofizika va biokimyoy instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining FA-F5-014 "Hajmga bog'liq anion kanallarining biofizikaviy fenotipi va hujayra hajm boshqarilish mexanizmidagi funksiyalarini o'rganish" (2017-2020); PZ-2017-0920-49 "Mahalliy xom-ashyo asosida hujayra hajm boshqarilishi va hajmga bog'liq membrana transporti modulyatorlari bo'lgan yangi perspektiv substansiyalarni tadqiqi" (2018-2020); F-OT-2021-157 "Hujayra hajm boshqarilish tizimining normal va rak hujayralari proliferatsiyasi va o'limidagi roli va uning farmakologiyasi" (2021-2026) mavzusidagi ilmiy loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Glitsirret kislotasi hosilalari va supramolekulyar komplekslarining hajmga bog'liq hujayraviy jarayonlarga ta'sirini o'rganish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

glitsirret kislotasining gemolitik faolligi va uning timotsitlar hajm boshqarilishini ingibirlash xususiyatini o'rganish va mazkur jarayonlarga C-3 va C-30 pozitsiyalarida efirlar hosil bo'lishi ta'sirini aniqlash;

glitsirret kislotaning alkaloidlar va geterohalqali aminlar bilan supramolekulyar komplekslari hosil qilishini spektrofotometriya usulida aniqlash va kompleks hosil bo'lishining glitsirret kislotasining gemolitik faolligiga va uning timotsitlar hajm boshqarilishini ingibirlash xususiyatiga ta'sirini o'rganish;

glitsirret kislotaning sulfanilamid preparatlari bilan supramolekulyar komplekslari hosil qilishini spektrofotometriya usulida aniqlash va kompleks hosil bo'lishining glitsirret kislotasining gemolitik faolligiga hamda uning timotsitlar hajm boshqarilishini ingibirlash xususiyatiga ta'sirini o'rganish;

o'rganilayotgan supramolekulyar komplekslarning glitsirret kislotasining gemolitik faolligiga ta'sir mexanizmi va uning timotsitlar hajm boshqarilishini ingibirlash xususiyatiga ta'sir mexanizmi orasidagi fundamental farqlarni aniqlash.

**Tadqiqotning ob'yekti:** 6–8 haftalik yosh oq kalamushlardan ajratilgan timotsitlar, odam eritrotsitlari, glitsirret kislotasi, alkaloidlar va geterohalqali aminlar, sulfanilamid preparatlari, glitsirret kislotasi hosilalari va uning supramolekulyar komplekslari.

**Tadqiqotning predmeti** gipoosmotik stress sharoitida gliksirret kislotasi, uning hosilalari va supramolekulyar komplekslarining eritrotsitlar yaxlitligiga va timotsitlar hajm boshqarilishiga ta'sirini tadqiq qilishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tajribalarda zamonaviy biofizikaviy, biokimyoviy va elektrofiziologik usullardan foydalanildi. Kalamush timotsitlari va qizil qon hujayralari standart metodlar yordamida ajratildi, timotsitlar hujayra hajmi suspenziyaning yorug'lik o'tkazuvchanligini registratsiyasi usuli bo'yicha aniqlandi. Natijalarni matematik va statistik tahlil qilish uchun Origin 5 va 8.6 (OriginLab, Northampton, MA, AQSh) kompyuter dasturlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk marotaba gliksirret kislotaning C-3 va C-30 pozitsiyalaridagi efir hosilalari asl molekulaga xos bo'lgan gemolitik faollikni yo'qotishi va gipoosmotik stress sharoitida timotsitlar hajm boshqarilishini ingibirlash xususiyatini keskin kamayishi aniqlandi; bu C-3 pozitsiyasidagi OH va C-30 pozitsiyasida COOH guruhlari GIK biologik faolligining kritik determinantlari ekanligidan dalolat beradi;

alkaloidlar va geterohalqali aminlar, shuningdek sulfanilamid preparatlari bilan gliksirret kislotasining barqaror komplekslarini hosil qilish fakti spektrofotometrik tarzda aniqlandi;

2-aminotiazol va 2-aminobenzotiazol bilan kompleks hosil bo'lishi GIK ning gemolitik faolligini oshiradi, 3-amino-1,2,4-triazol, lupinin, epilupinin, psevdofedrin va efedrin bilan bog'lanishi esa uni zaiflashtiradi; shu bilan birga, barcha o'rganilgan azotli ligandlar bilan kompleks hosil bo'lishi gliksirret kislotaning timotsitlar hajm boshqarilishini ingibirlash qobiliyatini keskin zaiflashtiradi;

aniqlandiki, sulfapiridazin bilan kompleks hosil bo'lishi GIK ning gemolitik faolligini neytrallaydi, streptotsid, sulfametoksazol, sulgin, norsulfazol va sulfalin esa uni kuchaytiradi; sulfapiridazin va sulfalin GIK ning timotsitlar hajm boshqarilishi bo'yicha ingibirlash ta'sirini zaiflashtiradi, streptotsid, sulfametoksazol, ftalazol va sulfadimezin esa uni kuchaytiradi;

kompleks hosil bo'lishining gemoliz va hajm boshqarilishiga turli yo'nalishli ta'siri hamda Xill koefitsiyenti qiymatlaridagi katta farq gliksirret kislotasining ushbu ikki turdagi biologik faolligi mexanizmi tubdan farq qilishi ko'rsatildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

C-3 pozitsiyasida OH guruhi va C-30 pozitsiyasidagi COOH gliksirret kislotaning biologik faolligini hal qiluvchi omili ekanligi molekulaning sitotoksikligini kamaytirish uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgani aniqlandi;

supramolekulyar komplekslarning shakllanishi sitotoksiklikni kamaytirishi va gliksirret kislotaning hujayra hajm boshqarilishini ingibirlash qobiliyatini kuchaytirishi mumkinligi aniqlandi, bu esa ushbu molekula asosida istiqbolli dori vositalarini sintez qilish uchun yangi yo'l ochadi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotlarda zamonaviy biofizik-biokimyoviy, elektrofiziologik tadqiqot usullaridan va zamonaviy uskunalardan foydalanilganligi, natijalar tahlili zamonaviy kompyuter dasturi yordamida tahlil

qilinganligi bilan tasdiqlanadi. Olingan natijalarning ishonchliligi ularning respublika va xalqaro anjumanlardagi muhokama qilinganligi, natijalar retsenziyalangan ilmiy nashrlarda chop etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati glitsirret kislota va uning supramolekulyar komplekslarining biologik faolligining molekulyar determinantlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, glitsirret kislotasi va uning supramolekulyar komplekslarining sitotoksik bo‘lmagan faol hosilalari ion kanallari va immun tizimi hujayralari patologiyasi bilan bog‘liq kasalliklarning oldini olish va davolashda samarali immunomodulyatorlar sinfiga kiruvchi yangi avlod istiqbolli dori vositalari sifatida ishlatilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Glitsirret kislota, uning hosilalari va supramolekulyar komplekslarining hajmga bog‘liq hujayra jarayonlariga ta’siri bo‘yicha olingan ilmiy natijalarga asoslanib:

glitsirret kislotasi hosilalari va uning supramolekulyar komplekslarining eritrotsitlar gemoliziga va timotsitlar hajm boshqarilishiga ta’sirini o‘rganishda olingan natijalar “O‘simliklardan olinadigan terpenoid birikmalarni (gossipol, glitsirizin, glitsirret, betulin kislotalar va ular analoglari) kimyoviy modifikatsiya qilish va ularning tuzilishi, biologik faolligini tuzilishiga bog‘liqligini tadqiq etish” mavzusidagi O‘zFA Bioorganik kimyo instituti Quyimolekulyar biologik faol birikmalar laboratoriyasida bajarilgan ilmiy tadqiqotda ba’zi terpenoid birikmalar va ular hosilalarining gipoosmotik stressda timotsitlar hajm boshqarilishiga va izoosmotik sharoitda eritrotsitlardan gemoglobin chiqishiga biologik ta’sirini aniqlashtirish maqsadida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 21-iyundagi 4/1255-1380-son ma’lumotnomasi). Natijada, o‘rganilayotgan preparatlar hujayra hajm boshqarilish tizimini qisman ingibirlashi va ular o‘rtacha va yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlangan;

glitsirret kislotasi va uning hosilalarining gemolitik hamda hajm boshqarilishini ingibirlovchi ta’sir mexanizmini aniqlash natijalari yuqori impakt faktorli va Scopus Cite Score ga ega xorijiy ilmiy jurnallarda tabiiy biologik faol birikmalarning hujayra membranalariga ta’sirini o‘rganishda foydalanilgan: (Biomedicine & Pharmacotherapy, 2025, V. 184, 117875, Scopus Cite Score – 12,8, IF – 7,5; Steroids, 2025, V. 221, 109653, Scopus Cite Score – 4,3, IF – 4,3; Journal of HerbMed Pharmacology, 2023, V. 13(1) 137–143, Scopus Cite Score – 2,4). Ilmiy natijalardan foydalanish turli guruhlarga mansub biologik faol moddalarning inson eritrotsitlari va timotsitlar hajm boshqarilish tizimiga ta’sirini tavsiflash imkonini berdi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 13 ta ilmiy ishlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 6 ta maqola, shulardan 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, yakuniy qism, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi (mundarija, qisqartma so'zlar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati bilan) 106 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti hamda predmetlari tavsiflangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Glitsirret kislotasi hosilalari va supramolekulyar komplekslarining umumiy xususiyatlari”** deb nomlangan birinchi bobida Glitsirret kislotasi va uning supramolekulyar komplekslari hamda hosilalarining tuzilishi, tasnifi, biologik faolligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari timotsit va eritrotsit hujayralarining tuzilishi, funksiyasi tahlil qilingan, hujayra hajmini boshqarilish tizimi mexanizmlari keltirilgan. Glitsirret kislotasi hosilalari va komplekslarining hujayralar hajm boshqarilish tizimiga ta'siri haqidagi adabiyot ma'lumotlari keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Hujayralar hajm boshqarilishi, qizil qon hujayralaridan gemoglobin chiqishini aniqlash materiallari va usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotda foydalanilgan moddalar va eritmalar tavsifi, xususiyati, eritrotsit hujayralarini ko'ngilli sog'lom odam qonidan ajratishning standart metodlari, gemoliz darajasini aniqlash, kalamush timus hujayralar suspenziyasini tayyorlash uslubi, timotsitlar hajm o'zgarishini yorug'lik o'tkazish yordamida aniqlash usuli batafsil yoritilgan, shuningdek olingan natijalarni matematik qayta ishlash usullari va statistik tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Glitsirret kislotasi hamda hosilalarining eritrotsit membranalari va timotsit hujayralari hajm boshqarilishiga ta'siri”** deb nomlangan uchinchi bobida izoosmotik sharoitda eritrotsit membranalariga va gipoosmotik stress sharoitida timotsitlar hajm boshqarilishiga GIK va uning hosilalarining dozaga bog'liq ta'siri, gemoliz jarayoni mexanizmini aniqlash to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

C-3 va C-30 pozitsiyalarida GIK ning efir hosilalari: 3-asetoksiglitsirret kislota (3-O-As-GIK), GIK ning 3-korich efiri (3-O-KK-GIK), GIK ning 3-metoksikorich efiri (3-O-MKK-GIK), GIK ning 30-metil efiri (30-Me-GIK) adabiyotlarda chop etilgan usullar asosida sintez qilingan (Толстикова 2007; Baltina 2014). O'rganilayotgan birikmalarning tuzilish formulalari 1-rasmda ko'rsatilgan.

Bizning tajribalarimizda inson eritrotsitlarining spontan lizis darajasi  $1,4 \pm 0,07$  % ( $n=4$ ) ni tashkil etdi. Inkubatsiya muhitiga GIK 500 mkM dan yuqori


konsentratsiyalarda qo‘shilishi inson eritrotsitlarining to‘liq lizisiga olib keldi. GIK ta‘sirida eritrotsitlar lizisining dozaga bog‘liqligi bo‘yicha tajribalar natijalarini Xill tenglamasi bo‘yicha approksimatsiyasi ushbu moddaning yarim maksimal ta‘sir ( $C_{50}$ ) ning samarali konsentratsiyasi  $328,8 \pm 3,8$  mkM ga, Xill koeffitsiyenti  $10,3 \pm 0,4$  ga teng bo‘lib o‘rtacha gemolitik faollikka ega ekanligini ko‘rsatdi (2 A-rasm).



### 1-rasm. Glitsirret kislotasi hosilalari

a) Glitsirret kislota b) 3-asetoksiglitsirret kislota d) Glitsirret kislotaning 3-korich efiri e) Glitsirret kislotaning 3-metoksikorich efiri f) Glitsirret kislotaning 30-metil efiri

GIK ning efir hosilalarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, 1000 mkM maksimal konsentratsiyada barcha o‘rganilgan moddalar uchun hujayra lizis darajasi o‘z-o‘zidan gemolizning nazorat qiymatlaridan statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori edi. Biroq, bu konsentratsiyada faqat GIK ning 30-metil efiri uchun (1000 mkM) 60 daqiqalik inkubatsiyadan keyin hujayralarda taxminan 10% darajada lizis kuzatildi, boshqa barcha moddalar uchun esa maksimal lizis 2–5% dan oshmadi (2 B-rasm).




### 2-rasm. GIK va uning hosilalarining eritrotsitlar gemoliz darajasiga ta‘siri.

A) Gemoliz darajasining moddalar konsentratsiyasiga bog‘liqligi grafigi. B) Gemolizning maksimal darajasi. Grafikdagi raqamlar quyidagilarni bildiradi: 1 – GIK, 2 – 3-O-As-GIK, 3 – 30-Me-GIK, 4 – 3-O-KK-GIK, 5 – 3-O-MKK-GIK. \* – nazorat bilan solishtirganda  $P < 0,05$ .

Ingibitorlar qo‘shilmagan nazorat sharoitida timotsitlar gipoosmotik stress ta‘siridan keyin 15–20 daqiqa ichida o‘z hajmini samarali tarzda tikladi.

Hujayralarning boshqariluvchi hajm kamayishi RVD parametri bilan tavsiflanadi va bu parametr gipoosmotik stress boshlanganidan 15 daqiqa o'tgach hajmning tiklanish foizini ko'rsatadi. Nazorat sharoitida bu ko'rsatkich  $78,2 \pm 2,3\%$  ( $n=21$ ) ga teng bo'ldi.

GIK uchun hajm boshqarilishning yarim maksimal ingibirlanishi  $C_{50} = 11,6 \pm 1,1$  mkM da kuzatildi. Xill koeffitsiyentining  $2,9 \pm 0,6$  qiymati timotsitlar hajm boshqarilishini ingibirlash uchun kamida uchta GIK molekulasi kerakligini ko'rsatishi mumkin. C-3 va C-30 pozitsiyalarida efirlarning hosil bo'lishi timotsitlar hajm boshqarilishiga nisbatan GIK ning ingibitorlik faolligini keskin pasaytirdi. Barcha o'rganilgan hosilalar uchun  $C_{50}$  qiymati dastlabki GIK uchun aniqlangan parametrdan 4-5 baravar yuqori bo'ldi. Bunda, 3-O-As-GIK (3-pozitsiyadagi GIK ning sirka kislotasi efiri) va 30-Me-GIK (30-pozitsiyadagi karboksil guruhidagi GIK ning metil efiri) kuchsizroq bo'lsada, baribir boshqariluvchi hajm kamayishini to'liq blokirovka qildi, lekin 3-O-KK-GIK va 3-O-MKK-GIK (bular 3-pozitsiyada hajmi kattaroq korich va metoksikorich kislota radikallari kiritilgan) faqat qismangina timotsitlar hajm boshqarilishini ingibirlashga muvaffaq bo'ldi (3-rasm).



**3-rasm. GIK va uning hosilalarining gipoosmotik stress sharoitida timotsitlar hajm boshqarilishiga dozaga bog'liq ta'siri.** Hosilalar uchun  $n=3$ , GIK uchun  $n=5$  marta takrorlashning o'rtacha qiymatlari ko'rsatilgan. 1 – GIK, 2 – 3-O-As-GIK, 3 – 30-Me-GIK, 4 – 3-O-KK-GIK, 5 – 3-O-MKK-GIK Ordinata o'qi nazorat qiymatiga normallashtirilgan RVD ni ko'rsatadi (ingibitorlar yo'qligida). Yaxlit va nuqtali egri chiziqlar Xill tenglamasi bo'yicha aproksimatsiya qilingan.

Shu bilan birga, hatto maksimal ishlatilgan konsentratsiyada ham (200 mkM), timotsitlar o'z hajmini 36-42% ga tiklay oldilar. Shuni ta'kidlash kerakki, tegilmagan (intakt) karboksil guruhi GIK ning o'zida ham, 30-Me-GIK dan tashqari barcha hosilalarda ham mavjud. Shuning uchun, bu GIK ning ingibitiv faolligining namoyon bo'lishi uchun yetarli tarkibiy element emas deb taxmin qilish mumkin, garchi kislotali protonni metil radikali bilan almashtirishning o'zi biologik faollikni 4 baravar pasayishiga olib kelgan. Timotsitlar hajm boshqarilish ta'siriga ko'ra, o'rganilayotgan birikmalar quyidagi faollik qatorida joylashgan:  $GIK > 30-Me-GIK > 3-O-As-GIK > 3-O-KK-GIK > 3-O-MKK-GIK$ .

Dissertatsiyaning “Glitsirret kislotasining alkaloidlar va geterohalqali aminlar bilan hosil qilgan komplekslarining eritrotsit membranalari va timotsit hujayralari hajm boshqarilishiga ta’siri” deb nomlangan to’rtinchi bobida GIK ning alkaloidlar va geterohalqali aminlar bilan komplekslarining eritrotsitlar gemoliziga va gipoosmotik stress sharoitida timotsitlar hajm boshqarilishiga dozaga bog‘liq ta’siri haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Moddalar toksikligining bir ko‘rinishi ularning qizil qon hujayralarini lizis qilish qobiliyatidir. Bu ishda biz organik kation-ligand sifatida turli aminlar bilan GIK komplekslarining inson eritrotsitlarining gemoliz jarayoniga ta’sirini o‘rgandik.

Biz ishlatgan ligandlar aminlar guruhiga mansub bo‘lib, ular azot atomining protonlanishi natijasida organik kation hosil qiladi va GIK anioni bilan komplekslar hosil qilishi kerak [Джуксар 2011]. Boshqa tomondan, agar GIK va ligandlarning terpenoid halqalari orasidagi noionik o‘zaro ta’sirlar yetarlicha kuchli bo‘lsa, ular ion juftlarini barqarorlashtirishi va ularni suvli eritmalarda ushlab turishiga olib kelishi mumkin. GIK ning gidrofobligi ham bunga hissa qo‘shishi mumkin. Bu hodisani supramolekulyar komplekslarning shakllanishi deb talqin qilish mumkin. Suvli eritmalarda ishlatilgan ligandlar bilan bunday GIK komplekslari hosil bo‘lish faktini aniqlash uchun biz GIK va individual ligandlarning yutilish spektrlarini, shuningdek olingan organik tuzlarni 30 mkM konsentratsiyada o‘lchadik. So‘ng biz (1) formulaga muvofiq kompleksning yutilishini GIK va ligandning yutilish yig‘indisiga bo‘lish yo‘li bilan  $K(\lambda)$  parametrini hisobladik:

$$K(\lambda) = A_K(\lambda) / [A_{GIK}(\lambda) + A_L(\lambda)] \quad (1)$$


Bu yerda  $A_K(\lambda)$ ,  $A_{GIK}(\lambda)$  va  $A_L(\lambda)$  – mos ravishda berilgan to‘lqin uzunligidagi ( $\lambda$ ) kompleks, GIK va ligand uchun yutilish qiymatlari.

Bunday holda, agar  $K(\lambda)$  koeffitsiyenti birga teng bo‘lsa, biz katta ehtimol bilan GIK va ligandning oddiy aralashmasi bilan ishlaymiz, ya’ni hosil bo‘lgan kompleks butunlay alohida komponentlarga ajraladi. Agar  $K(\lambda)$  birdan (katta yoki kichik tomon) farq qilsa, biz optik zichlikning additivlikdan og‘ishini ko‘ramiz va bu eritmada supramolekulyar kompleks hosil bo‘lishidan dalolat beradi. Biz chegara darajasi sifatida 10% og‘ishdan foydalandik. 4-rasmda 8-oksixinolin va 2-aminotiazol bilan GIK va uning komplekslarining yutilish spektrlariga misollar keltirilgan. 8-oksixinolin uchun 230-310 nm to‘lqin uzunligi oralig‘ida  $K(\lambda)$  ning o‘rtacha qiymati  $0,95 \pm 0,09$  ni tashkil qiladi, ya’ni bu holda hosil bo‘lgan kompleks o‘zining asl tarkibiy qismlariga to‘liq parchalanadi (dissotsiatsiyalanadi).

Shu bilan birga, 2-aminotiazol uchun to‘lqin uzunligi 240-300 nm oralig‘ida  $K(\lambda) = 1,89 \pm 0,17$ , ya’ni bu holda eritmada supramolekulyar kompleks hosil bo‘layotganini ko‘rsatadi. O‘rganilgan 10 ta ligand uchun  $K(\lambda)$  koeffitsiyentining olingan o‘rtacha qiymatlari 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

Supramolekulyar komplekslarning shakllanishi GIK ning biologik faolligining oshishiga ham, pasayishiga ham olib kelishi mumkin. Dastlab, biz individual moddalarning gemolitik faolligini aniqlash bo‘yicha tajribalar o‘tkazdik va GIKning o‘zi eritrotsitlar gemolizini  $C_{50} = 341.5 \pm 7.4$  mkM da yarim maksimal

samarali konsentratsiyasini keltirib chiqarganligini aniqladik. O'rganilgan ligandlarning hech biri sof shaklda sezilarli ta'sir ko'rsatmagan, eritrotsitlar yaxlitligi va bu moddalar ishtirokida aniqlangan gemoliz darajasi 1000 mkM gacha bo'lgan konsentratsiyada ~ 2,1% dan oshmagan (5 A-rasm).



**4-rasm. GIK, alkaloidlar hamda geterohalqali aminlar va komplekslarning yutilish spektrlari.** Eritmadagi moddalarning konsentratsiyasi 30 mkM. Chap ordinata nisbiy optik yutilish qiymatini, o'ng ordinata  $K(\lambda)$  qiymatini ko'rsatadi. A) 1 – GIK, 2 – 8-oksixinolin, 3 – GIK + 8-oksixinolin, 4 –  $K(\lambda)$ ; B) 1 – GIK, 2 – 2-aminotiazol, 3 – GIK + 2-aminotiazol, 4 –  $K(\lambda)$ .


#### 1-jadval

**Belgilangan to'liqin uzunligi oralig'ida o'rtacha  $K(\lambda)$  qiymatlari. Kompleksning shakllanishi «+» belgisi bilan belgilanadi, agar  $K(\lambda)$  qiymati birlikdan 10 % dan ortiq farq qilsa.**

	Moddalar	$K(\lambda)$	$\lambda$ (nm)	Kompleks
1	GIK+3-amino-1,2,4-triazol	1,95±0,29	240–300	+
2	GIK+Lupinin	0,57±0,2	240–300	+
3	GIK+Epilupinin	0,99±0,35	230–340	–
4	GIK+Psevdoefedrin	1,11±0,37	240–300	+
5	GIK+Efedrin	1,13±0,06	240–300	+
6	GIK+8-oksixinolin	0,95±0,09	230–310	–
7	GIK+Sitizin	0,38 ±0,03	240–330	+
8	GIK+2-aminopirimidin	0,67±0,04	230–330	+
9	GIK+2-aminotiazol	1,89±0,17	240–300	+
10	GIK+2-aminobenzotiazol	0,88±0,03	240–300	+

O'rganilgan komplekslarning beshtasi GIK dan yuqori  $C_{50}$  qiymatiga ega edi, ya'ni supramolekulyar kompleks hosil bo'lishi dastlabki GIK ning gemolitik faolligining zaiflashishiga olib keldi. 2-aminotiazol bilan GIK kompleksining gemolitik faolligi GIK ning o'ziga qaraganda ancha yuqori edi. Tajribada aniqlangan  $C_{50}$  qiymatlari 5 B-rasmdagi diagrammada umumlashtirildi. Shu rasmning o'zida supramolekulyar kompleksning shakllanishi (1-jadvaldagi ma'lumotlar) "panjara" belgisi bilan belgilangan. №3 (epilupinin) moddasidan tashqari, GIK ning gemolitik faolligini statistik jihatdan sezilarli darajada o'zgartiradigan barcha ligandlar spektrofotometrik tarzda tasdiqlangan supramolekulyar komplekslarni hosil qiladi. Shu bilan birga, bunday kompleksning hosil bo'lishi gemolitik faollik darajasiga ta'sirning mavjudligini kafolatlamaydi, chunki №7 (sitizin), №8 (2-aminopirimidin) va №10 (2-aminobenzotiazol) moddalari uchun aynan shunday natija topilgan.

$C_{50}$  ning ortishi GIK ning gemolitik faolligining pasayishiga to‘g‘ri keladi, bu kompleksga nisbatan yuqori gemolitik faollikka ega bo‘lgan erkin GIK miqdorining pasayishi sifatida izohlash mumkin. Shu bilan birga, 2-aminotiazolli kompleks (9-modda) boshlang‘ich GIK ga qaraganda faolroq bo‘lib chiqdi, bu ehtimol geterotsiklik halqada oltingugurt atomining mavjudligi bilan bog‘liq. 2-aminobenzotiazol (10-modda) bilan kompleksning o‘rtacha faolligi 2-aminotiazol (9-modda) bilan kompleks faolligiga yaqin edi, bu taxminga mos keladi, garchi bu kompleks uchun farq bo‘lmasa ham, statistik ahamiyatga egalik darajasiga yetadi.




**5-rasm. GIK, alkaloidlar hamda geterohalqali aminlar va komplekslarning eritrotsitlar gemoliz darajasiga ta’siri.** A) Gemoliz darajasining moddalar konsentratsiyasiga bog‘liqligi grafigi. 1 – GIK, 2 – GIK+2-aminotiazol, 3 – GIK+lupinin, 4 – GIK+3-amino-1,2,4-triazol, 5 – barcha ligandlar sof shaklda. B) Yarim maksimal gemolizga olib keladigan konsentratsiya. Grafiklardagi raqamlar to‘plamlari 1-jadvalda berilgan. Yulduzchalar (\*)  $P < 0,05$  da GIK uchun  $C_{50}$  qiymatidan statistik jihatdan sezilarli darajada farq qiladigan qiymatlarni bildiradi.

Keyingi tadqiqotlar davomida xuddi shu GIK komplekslarining gipoosmotik stress sharoitida timotsitlarning RVD jarayoniga ta’siri o‘rganildi. Tajribalarimizni dastlab 20, 30 mkM konsentratsiyalarda olib bordik.

Moddalar 20 mkM konsentratsiyada tekshirilganda RVD miqdori nazoratda  $91,4 \pm 3,7\%$  ni tashkil etdi, GIK ta’sir ettirilganda RVD miqdori  $15,2 \pm 0,8\%$  ga pasaydi. GIK ning barcha tadqiq qilingan komplekslari GIK ga nisbatan kuchsiz ta’sir qildi, ya’ni kompleks hosil bo‘lishi GIK ning ta’sir kuchini pasaytirdi. Keyingi tajribalarda ushbu moddalar 30 mkM konsentratsiyada tekshirildi va hujayralarning boshqariluvchi hajm kamayishi nazoratda  $91,4 \pm 3,7\%$  ni tashkil etdi. GIK ta’sirida RVD miqdori  $0,4 \pm 0,4\%$  ga teng bo‘ldi, ya’ni hujayralar hajm boshqarilishini butkul to‘xtatdi. Ushbu konsentratsiyada (30 mkM) kompleks hosil bo‘lishi GIK samaradorligini pasaytirdi. Shu bilan birga, ligandlarning o‘zlari (alkaloidlar va geterohalqali aminlar) 30 mkM konsentratsiyada hujayra hajm boshqarilish tizimiga deyarli ta’sir ko‘rsatmadi.

Hujayra hajm boshqarilish tizimiga kuchli va o‘rtacha ta’sir ko‘rsatadigan GIK komplekslari ta’sirining dozaga bog‘liqligini batafsil o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, GIK+8-oksixinolin va GIK+2-aminobenzotiazol uchun  $C_{50}$  qiymatlari taxminan ikki marta, va GIK+2-aminotiazol uchun GIK ga nisbatan bir yarim baravar ko‘p, ya’ni bir xil (yarim maksimal) ingibirlash uchun kompleksning bir


yarim-ikki baravar yuqori konsentratsiyasi talab qilinadi (6-rasm). Shunday qilib, azot o'z ichiga olgan ligandlar bilan kompleks hosil bo'lishi GIK ning RVD ni ingibirlash faolligini keskin zaiflashishiga olib keladi.



**6-rasm. Glitsirret kislotasining ayrim alkaloidlar va geterohalqali aminlar bilan hosil qilgan komplekslarini dozaga bog'liq ta'siri.** A) Glitsirret kislotasi B) GIK+8-oksixinolin D) GIK+2-aminobenzotiazol E) GIK+2-aminotiazol. Moddalarning konsentratsiyaga bog'liq ta'siri natijasining Hill tenglamasida approksimatsiyasi.

